O‘QUVCHILARDA MILLIY G‘URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHDA KITOB MUTOLAASINING O‘RNI

G‘uzorov Azamat Xolto‘rayevich
Qashqadaryo viloyati Mirishkor tumani 1-son kasb-hunar maktabi YOBIBDO‘

Annotatsiya: Maqolada o‘quvchini shaxs bo‘lib shakllanishida, milliy g‘urur hissini namoyon bo‘lishida, albatta, kitobxonlikning vazifasi va o‘rni haqida batafsil tahlil qilib o‘tishga harakat qildik. Bu borada maqola kitob o‘qish va o‘qitish texnologiyasini ilmiy jihatdan asoslandi.
Kalit so‘zlar: Kitob, ma’naviyat, milliy g‘urur, yoshlar, kitobxonlik madaniyati, vatanparvarlik.
Аннотация:В статье мы попытались подробно проанализировать роль и роль чтения, безусловно, в формировании школьника как личности, в проявлении чувства национальной гордости. В связи с этим в статье научно обоснована технология чтения и обучения.
Ключевые слова: Книга, духовность, национальная гордость, молодежь, читательская культура, патриотизм.
Annotation: In the article, we tried to analyze in detail the role and role of reading, of course, in the formation of a student as a person, in the manifestation of a sense of national pride. In this regard, the technology of reading and learning is scientifically substantiated in the article.
Key words: Book, spirituality, national pride, youth, reading culture, patriotism.

Har bir inson dastlabki tarbiyani, ya’ni ma’naviy ozuqani oilada ota-onadan oladi. Keyin esa maktabga boradi. Jamoada o‘zini qanday tutishni o‘rganadi. Ma’naviy ozuqa olishning, chin inson bo‘lib yetishishning birdan bir yo‘li bu kitob mutolaasi hisoblanadi. Inson kamoloti va bilimining manbai kitob bilan bog‘liq. U insonni komillik sari yetaklaydi. Darhaqiqat, bu ma’naviy sarchashma farzandlarimizning dunyoqarashini boyitadi, nutqini o‘stirib, xotirasini mustahkamlaydi.

Kitob maslahatchi, sadoqatli hamrox, eng yaqin do‘st va bebaho boylik hisoblanadi. Bola tarbiyasida uning o‘rni muhim. Millatning ma’naviy-ruhiy dunyosini kitobga munosabati, kitobxonlik darajasiga qarab ham aniqlash mumkin. Jahon madaniyatiga munosib hissa qo‘shgan ajdodlarimiz erishgan betakror yutuqlarning sababi ham kitob mutolaasidir. Shu bois yurtimizda aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish masalasiga jiddiy e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida”gi farmoyishida belgilab berilgan vazifalar o‘zining dolzarbligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish, kitob sotishga ixtisoslashgan korxonalar tomonidan ta’lim muassasalari, kutubxonalar va mahallalarda yangi kitoblar taqdimotini o‘tkazish, mutolaa madaniyatini oshirish, shu jumladan, ommaviy-axborot vositalari orqali targ‘ibot-tashviqot qilishga qaratilgan ta’sirchan faoliyat olib borish orqali aholining kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish bo‘yicha tegishli vazifalar va yo‘nalishlar belgilab berildi.

Ma’lumki, o‘quvchilar qalbida yuksak ma’naviyatni shakllantirishda kitob va kitobxonlikning ahamiyati beqiyosdir. Kitob asrlarni-asrlarga, zamonlarni-zamonlarga, rishtalarni-rishtalarga ulovchi vosita. Shuning uchun har bir inson, har bir kitobxonda kitob o‘qish, axborot olish madaniyatini yanada rivojlantirishimiz kerak.

Demak, biz soha mutaxassislari oldiga ham yuksak mas’uliyat yuklaydi. Shuning uchun kitobxonlar bilan doimiy ravishda savol javoblar, ko‘rgazma oldida suxbat va eng

https://wordlyknowledge.uz

asosiysi OAV bilan hamkorlikda turli tadbirlar tashkil etish orqali targ‘ibot ishlarini yanada ta’sirchanligini oshirishimiz kerak.

Aholi, ayniqsa, yoshlar orasida badiiy jihatdan yuksak, intellektual saviyani o‘stirishga xizmat qiladigan kitoblarga bo‘lgan talabni o‘rganish, shu jumladan, badiiy, ma’rifiy, yoshlarning dunyoqarashini kengaytirishga doir adabiyotlarning umumiy buyurtma ro‘yxatini shakllantirish tizimini takomillashtirish ayni kunning dolzarb vazifasi hisoblanib, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni yuksaltirishda eng tasirchan omillardandir.

Shuningdek, bugun yoshlarning kitob o‘qishga bo‘lgan qiziqishlarini yuksaltirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirish maqsadida 2017 yil 13 sentabrdagi “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida”gi PQ-3271-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 7 iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko‘rsatishni yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi PQ-4354-son qarorlari, shuningdek, Prezidentimiz tomonidan yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusdan biri - yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish borasidagi ishlarimizda dasturil amal bo‘lmoqda.

Barkamol avlodni tarbiyalash O‘zbeksiton siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Xususan, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasining 4.5 bandida “jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish” vazifasi belgilangan. Vatanga sadoqat, fidoiylik, tashabbuskorlik asosini milliy g‘urur tashkil etadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda bolada milliy g‘urur hissini tarbiyalash muhim ahamiyatga egadir.

Milliy g‘urur – shaxs, ijtimoiy guruhning milliy o‘z-o‘zini anglashi asosida shakllanadigan ajdodlar qoldirgan moddiy, ma’naviy merosdan, o‘z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasi, o‘zga millatlar oldidagi qadr-qimmati, obro‘-e’tiboridan faxrlanish hissini ifodalovchi tushuncha. Bu tushuncha quyidagi shakllarda namoyon bo‘ladi: millatning yutuqlari, obro‘-e’tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik; o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lish; o‘z millatining moddiy, ma’naviy merosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an’analari, qadriyatlarini hurmat qilishi, ularni boyitishi va takomillashtirishi; o‘z millatiga mehr-muhabbatini amaliy faoliyatida namoyon qilishi lozim bo‘ladi. V–VIII asrlarga mansub O‘rxun-Enasoy bitiklari barcha turkiy xalqlar ma’naviyatining eng qadimiy yodgorliklari sanaladi. Mazkur tosh bitiklarda turkiy qavmlarning buyuk donishmandi Bilga Hoqonning o‘z qavmiga qarata aytgan mana bu xitobni bir esga olaylik: “Sen o‘zingni anglasang, o‘zligingga qaytsanggina yuksalasan, buyuk bo‘lasan!”. Milliy g‘urur masalasi etnogenezis tadqiqotlarda doirasida o‘rganilgan. Tarixiy va ilmiy izlanishlar natijasida milliy g‘ururning ikki muhim tomoni ajratib ko‘rsatiladi:

1) g‘urur barcha insoniyatga xosdir, biroq g‘urur milliy g‘urur tarzida ifodalanishi uchun shaxs o‘z an’ana, til, ma’naviy merosini butun dunyoda rivojlanishiga intilishi lozim.

2) millati mustaqilligi va ozodligiga xavf tug‘ilganda, millatning qadriyatlariga haqoratomus munosabat qilinganida ularga qarshi tura olishga tayyorlik. Aynan mana shu ikki jihat kishidagi milliy g‘ururning asosini tashkil qiladi. Milliy g‘urur vatanparvarlik hissidan dalolat beradi.

O‘quvchida milliy g‘urur hissini tarbiyalashda kitobsevarlikning o‘rni kattadir. Chunki, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek, “kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai” yoki faylasuf Bekon

https://wordlyknowledge.uz

ta’kidlaganidek, “kitoblar zamon to‘lqinlarida suzuvchi va o‘zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalari” bo‘lsa, kitobxon ana shu ma’nan yuksaklikka intilayotgan va ajdodlar merosini qadrlaydigan shaxsdir. Kitobsevarlik haqida Amir Temur hayoti bilan bog‘liq ajoyib rivoyat bor. Amir Temurning qo‘shinlari Arman zaminidan o‘tib ketayotganda bir monastirga duch kelishibdi. Temur qo‘shinlari darvozalarni ochishni talab qilibdi. Monastrdagilar bunga rozi bo‘lishmasdan o‘rniga katta miqdorda oltin va’da qilishibdi. O‘sha paytlarda urush qoidalariga binoan hayoti saqlab qolingan mag‘lub tomon g‘olib tomonga omonlik solig‘ini to‘lashgan. Monastrdagilarning taklifi Amirga ma’qul kelmapti. Ancha o‘ylanib turib kelgan elchilarga “mayli kimki omonlik istasa, o‘z og‘irligiga teng kitob keltirsin!” deb shart qo‘yibdi. Monastr ahli bu talabni uzoq muhokama qilib, o‘limga rozi ekanliklarini izhor qilibdilar. Bunday qarordan ta’sirlangan Temur “xalqning ma’naviy merosini o‘z jonidan afzal ko‘rgan el yashashga haqli” degan farmon bergan ekan. Bu rivoyatda arman xalqining kitobga bo‘lgan e’tiqodi bilan birga tillodan kitobni afzal ko‘rgan, o‘limga mahkum etilgan dushmanni faqat kitobsevarligi uchun ardoqlab, omonlik bergan sarkardaning ma’nan yetukligi targ‘ib qilinadi. Kitobsevarlik orqali bolada tarixga, milliy qadriyatlarga, tarixiy shaxslarga nisbatan hurmat, vatanparvarlik va sadoqot hisslari tarbiyalanadi.

Bolada o‘zi o‘qigan kitoblarining eng qiziqarli, ta’sirli vokea-hodisalarini so‘zlab berish orqali ularni kitobxonlikka bo‘lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Kitob mutoalasi bolada quyidagi fazilatlarni shakllantirish orqali milliy g‘ururni tarbiyalaydi:

-xalq og‘zaki ijodi namunalari, badiiy va tarixiy asarlarda aks etgan milliy, umuminsoniy qadriyatlar, hamjihatlik, Vatanga sadoqot, vatanparvarlik, mardlik tasvirlangan qahramonlar qiyofasi orqali yurt taqdiriga daxldorlik tuyg‘usini, ezgulik hislarini singdirish;

-asar qahramonlari orqali halollik, rostgo‘ylik, vijdonlilik, mehnatsevarlik inson ma’naviy qiyofasining ko‘rki ekanligini fidoiylik, tinchliksevarlik tushunchalarining umumiy mazmunini anglash;

-davlat ramzlari, tarixiy maskanlar, tarixiy shaxslar haqidagi asarlar yordamida milliy iftixor tuyg‘usini shakllanishi.

Umuman olganda yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo‘lsak:

-Boladagi kitobsevarlik uning ma’naviy dunyoqarishi, axloqiy ongining oshishiga va milliy g‘ururning shakllanishiga xizmat qiladi;

-Xalq og‘zaki ijodi namunalari, badiiy va tarixiy asar qahramonlari siymosidagi mardlik, vatanparvarlik, yurtga sadoqat tuyg‘ulari orqali bolada milliy g‘urur, milliy iftixor tuyg‘ularini shakllanishiga xizmat qilishi mumkin;

-Oilada farzand tarbiyasida badiy asar mutoalasini targ‘ib qilish orqali bolada milliy xususiyatlarni shakllantirish mumkin.

Xulosa qilib aytganda Kitob – tafakkur qanoti. Bu qanot mustahkam bo‘lsa, yuksak kengliklar sari intilishdan tolmaydi. Kitobga bo‘lgan qiziqish o‘sib kelayotgan yosh avlodning ma’naviy dunyosini boyitishga xizmat qiladi. Har bir inson kitoblar orqali uning ma’naviy xazinasidan, cheksiz imkoniyatidan iloji boricha ko‘proq foydalanib, o‘zining, o‘zgalarning hayotini mazmunan boyitishi mumkin. Kitob-ruhiyatimiz ozuqasi, u bilan do‘stlashish nafaqat bizni ma’nan yuksaltiradi, balki jahonga tanitadi, ezgulikka yetaklaydi.

https://wordlyknowledge.uz